

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 521 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safojev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIVAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLIVALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI

Adilov Mirkomil Miralimovich

PhD, dotsent, O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining direktor o'rinbosari.

Annotatsiya. Mazkur maqola tijorat banklarida muammoli kreditlarning shakllanishi, ularning kredit portfelidagi ulushi va bank faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalarida O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli hamda muammoli kreditlar dinamikasi yoritilgan. Shuningdek, maqolada kredit portfeli sifatini oshirish, muammoli kreditlarni kamaytirish va banklarning ichki boshqaruv hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Banklar faoliyatida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanish muammoli kreditlar darajasini pasaytirish, kredit risklarini erta aniqlash va samarali boshqarishga xizmat qilishi alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari mamlakat moliya tizimi barqarorligini mustahkamlash hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda tijorat banklarining strategik rolini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, muammoli kreditlar (NPL), kredit risklari, kredit portfeli sifati, moliyaviy barqarorlik, raqamli kreditlash, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the formation of non-performing loans (NPLs) in commercial banks, their share in the credit portfolio, and their impact on banking activities. The research highlights the dynamics of the credit portfolio and NPL levels in commercial banks of Uzbekistan. The paper proposes theoretical and practical measures aimed at improving credit portfolio quality, reducing the share of NPLs, and enhancing internal management and risk management systems. It emphasizes the role of digital technologies, artificial intelligence, and big data analytics in reducing NPL levels through early identification and effective management of credit risks. The study's findings are significant for strengthening the financial stability of the country, increasing the competitiveness of commercial banks, and supporting sustainable economic growth.

Keywords: commercial banks, non-performing loans (NPL), credit risks, credit portfolio quality, financial stability, digital lending, economic development.

Аннотация. Статья посвящена комплексному анализу формирования проблемных кредитов в коммерческих банках, определению их доли в кредитном портфеле и влиянию на банковскую деятельность. В ходе исследования раскрыта динамика кредитного портфеля и проблемных кредитов коммерческих банков Узбекистана. В работе представлены теоретические и практические меры, направленные на повышение качества кредитного портфеля, снижение доли проблемных кредитов и совершенствование механизмов внутреннего управления, включая систему управления рисками. Отдельно подчеркнута эффективность внедрения цифровых технологий, искусственного интеллекта и анализа больших данных в раннем выявлении кредитных рисков и повышении качества их управления. Полученные результаты имеют важное значение для укрепления финансовой стабильности страны, повышения конкурентоспособности банковского сектора и стимулирования экономического роста.

Ключевые слова: коммерческие банки, проблемные кредиты (NPL), кредитные риски, качество кредитного портфеля, финансовая стабильность, цифровое кредитование, экономическое развитие.



KIRISH

Innovatsion rivojlanish sharoitida mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda bank–moliya tizimi, ayniqsa tijorat banklarining roli beqiyosdir. Mazkur banklar jamiyatdagi bo'sh pul mablag'larini safarbar etish, ularni samarali sohalariga yo'naltirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda turli kredit va hisob–kitob xizmatlarini ko'rsatish orqali iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ushbu tizim orqali ishlab chiqarish korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, shuningdek, aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi turli loyihalarning moliyalashtirilishi amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar mamlakat real sektori uchun asosiy moliyaviy manbalardan biri sifatida qaraladi. Shu bilan birga, kredit oluvchilarning moliyaviy intizomi, biznes boshqaruvidagi sustkashliklar, bozor kon'yunkturasining tez o'zgarishi, garov qiymatining bozor bahosidan farqlanishi, shuningdek, banklar tomonidan kreditga layoqatlilikni baholashdagi ayrim xatolar kredit risklarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Natijada kreditlar qaytarilishining kechikishi yoki murakkablashuvi bank balansida aktivlar sifatining pasayishiga sabab bo'ladi. Bu esa tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, kreditlash hajmlarining qisqarishi va daromadlarning kamayishiga olib kelishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Muammoli kreditlar (NPL) banklar faoliyatigagina emas, balki mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligiga, iqtisodiy faollikning saqlanishiga va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchining mustahkamlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, ichki va tashqi omillarni kompleks baholash, shuningdek, ularning ulushini kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish hozirgi davrning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ana shunday tizimli yondashuv tijorat banklarining kredit portfeli sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshib boruvchi darajasi milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlarning ta'kidlashicha, kreditlar hajmining ortishi investitsion faollikni rag'batlantiradi, iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi hamda moliyaviy resurslar aylanishini kengaytiradi [1]. Shu bilan birga, kreditlar hajmining oshishi kredit riskining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Mazkur holat kredit riskini boshqarish tizimini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ko'rinishicha, tijorat banklarida kredit risklarini minimallashtirishda yuqori likvidli garov obyektlaridan foydalanish, kreditlarni sug'urtalash, kredit limitlarini belgilash, shuningdek, standartlashtirilgan baholash yondashuvlarini qo'llash samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi [2].

Mashhur iqtisodchi olim O.A. Lavrushinning kreditning iqtisodiyotdagi o'rni bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida kreditning umumiy xarajatlarni optimallashtirishda, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda va milliy iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etilgan [3]. Shuningdek, Ye. Litvinov tomonidan kreditlarning bahosi bo'yicha bildirilgan fikrlarga ko'ra, tabaqalashtirilgan foiz stavkalarini qo'llash tijorat banklari iste'mol kreditlarining jozibadorligini oshiradi va aholi ehtiyojlarini qondirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [4]. Shu bilan birga, N. Valenseva kreditlar bo'yicha foiz marjasini asossiz qisqartirish banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ilmiy asoslagan. Bu omil banklar aktivlari rentabelligini saqlashda ehtiyotkorlik bilan yondashish zaruriyatini ko'rsatadi [5].

A. Golovanovning izlanishlarida kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikni oldini olishda kredit to'lovlari yukini markazlashgan tarzda cheklashga asoslangan modelni qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlangan [6]. Mazkur yondashuv ayrim toifadagi mijozlar uchun samarali natija berishi mumkin bo'lsa-da, barcha kredit oluvchilar uchun universal yondashuv bo'lmasligi mumkin. Shu sababli, kreditlashda mijozlarning iqtisodiy holati va to'lov qobiliyatidan kelib chiqqan holda individual yondashuv talab etiladi.

Ko'plab iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida tijorat banklari kreditlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan xizmat ko'rsatish sohasi subyektlari faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati e'tirof etilib, bu jarayonda tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, Bazel–II standartlari asosida kredit risklarini baholash va loyihalarni turkumlashtirgan holda uzoq muddatli kreditlashni kengaytirish muhim shart sifatida ko'rsatib o'tilgan [7].

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligining asosiy sabablaridan biri sifatida korxonalaridagi yuqori darajadagi debitor qarzdorlikni qayd etishgan. Ularning fikricha, faktoring operatsiyalarini rivojlantirish debitor qarzdorlik darajasini kamaytirish, shu orqali kreditlarning qaytish muddatini ta'minlashga xizmat qiladi [8].

Kredit munosabatlarining nazariy asoslari ham iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Kreditning mohiyati tavsifiga ko'ra, u "ishonch" kategoriyasiga tayanadi. Chunki "kredit" so'zi lotincha credit,

ya'ni "ishonch" so'zidan olingan. Biroq bu borada turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Masalan, nemis iqtisodchi olimi V. Leksis kredit munosabatining yuzaga kelishi uchun qarz beruvchi ishonchining hal qiluvchi ahamiyatga ega emasligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, kredit munosabatlarida ishonchsizlik elementi mavjud bo'lib, kredit beruvchi o'z manfaatini ta'minlash uchun kafolat talab qilishi tabiiy holatdir [9]. Biroq ushbu fikr kreditning mohiyatida "ishonch"ning mavjudligini inkor etmaydi, balki uning kredit munosabatlarida yagona hal qiluvchi mezon bo'lmashligini ko'rsatadi [10]. Shu nuqtai nazardan, kredit munosabatida "ishonch" va "kafolat"ning uyg'unligi kredit tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil va taqqoslash usullari tashkil etadi. Tijorat banklari kredit portfeli va muammoli kreditlar dinamikasi statistik guruhlash, dinamik qatorlar, trend tahlili hamda ekspert baholash usullari orqali o'rganildi. Risk darajasini aniqlashda kredit reyting tahlili va kvalimetrik baholash yondashuvi qo'llanildi.

Muammoli kreditlarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar mantiqiy va deduktiv tahlil asosida baholandi, xorijiy tajriba komparativ usulda solishtirildi. Sun'iy intellekt, Big Data va raqamli monitoring vositalarini bank risklarini boshqarishga tatbiq etish imkoniyatlari induktiv tahlil orqali o'rganildi.

Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, tijorat banklarining hisobotlari va xalqaro moliyaviy institutlar tavsiyalari foydalanildi. Tahlil natijasida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlanib, "erta ogohlantirish tizimi", scoring-modellari va raqamli monitoringni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda bank-moliya tizimi, xususan, tijorat banklarining roli beqiyosdir. Tijorat banklari jamiyatdagi bo'sh pul mablag'larini safarbar etib, ularni samarali yo'nalishlarga yo'naltirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek kredit va hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish orqali iqtisodiyotda muhim moliyaviy vositachi sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur tizim orqali real sektor korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda aholining turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi loyihalarning moliyalashtirilishi iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar real sektor uchun asosiy moliyaviy resurslardan biri hisoblanadi. Biroq kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmasligi yoki kechiktirilishi kredit risklarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Kredit oluvchilarning moliyaviy intizomi pastligi, biznes yuritishda strategik rejalashtirishning yetarli emasligi, bozor sharoitlarining tez o'zgarishi, garov qiymatidagi baholash farqlari, shuningdek banklar tomonidan kreditga layoqatlilikni baholashdagi ayrim kamchiliklar muammoli kreditlar ulushining oshishiga sabab bo'ladi. Mazkur kreditlar bank balansida xavfsiz aktivlar sifatida emas, balki qo'shimcha monitoring va boshqaruv choralarini talab etuvchi aktivlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muammoli kreditlar ulushining oshishi bankning moliyaviy barqarorligiga, kreditlash hajmiga, daromadlariga va bank tizimiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, kredit risklarini boshqarish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etish banklar barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim hisoblanadi. Kredit risklarini optimallashtirish nafaqat tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki moliya tizimi barqarorligini mustahkamlaydi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda ichki va tashqi omillarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularni oldindan prognozlash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) asosida kredit monitoringini kuchaytirish, risklarni erta aniqlash, kredit reyting tizimlarini yanada takomillashtirish, shuningdek kredit oluvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish muammoli kreditlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda bank-moliya tizimini isloh qilishga qaratilgan farmon va qarorlari, Markaziy bank tomonidan joriy etilayotgan me'yoriy hujjatlar, banklar o'rtasida raqobatning kuchayib borishi kredit risklarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llashni talab etmoqda. Tadqiqot natijalari asosida muammoli kreditlarning kelib chiqish omillarini aniqlash, xalqaro moliyaviy institutlar tajribasini mahalliy sharoit bilan uyg'unlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish tijorat banklari faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi (1-jadval).



1-jadval. Tijorat banklarining muammoli kreditlari dinamikasi (2022–2024-yillar)

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Jami kreditlar (mlrd so'm)	382 078	465 493	525 887
Muammoli kreditlar (NPL, mlrd so'm)	15 344	17 631	22 447
Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi (%)	4,0%	3,8%	4,3%
Davlat ulushi mavjud banklar – jami kreditlar (mlrd so'm)	318 788	331 070	363 939
Davlat ulushi mavjud banklar – muammoli kreditlar (NPL, mlrd so'm)	13 828	13 750	14 982
Davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar ulushi (%)	4,3%	4,2%	4,1%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki byulleteni ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

2022–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston tijorat banklarining muammoli kreditlari dinamikasini tahlil qilish mamlakat bank tizimi rivojlanishidagi muhim tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. So'nggi yillarda iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlar, moliya bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish, kreditlash hajmini kengaytirish hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash tijorat banklarining kredit portfeli sezilarli darajada oshishiga xizmat qilmoqda. Jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, tijorat banklarining jami kreditlari 2022-yilda 382 078 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 465 493 mlrd so'mga, 2024-yilda esa 525 887 mlrd so'mga yetgan. Ushbu o'sish iqtisodiyotda kredit resurslariga bo'lgan talab ortganini, tijorat banklari tomonidan real sektorni moliyalashtirish faoliyati kengayganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kredit portfelining tez sur'atlar bilan kengayishi ularning sifatini, ya'ni muammoli kreditlar ulushini sinchiklab tahlil qilish zarurligini taqozo etadi.

Tahlil natijalarida muammoli kreditlarning (NPL) hajmi ham mutanosib ravishda oshganini ko'rish mumkin. Xususan, 2022-yilda tijorat banklarining muammoli kreditlari 15 344 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 17 631 mlrd so'mga, 2024-yilda esa 22 447 mlrd so'mga yetgan. Bu davrda muammoli kreditlar hajmi 46,3 foizga oshgan. Mazkur holat, bir tomondan, iqtisodiy faollikning ortishi va kreditlash hajmlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, kredit portfeli sifatini yanada yaxshilash zarurligini ko'rsatadi. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2022-yilda 4,0 foizni, 2023-yilda 3,8 foizni, 2024-yilda esa 4,3 foizni tashkil etgan. 2023-yilda NPL ulushining pasayishi tijorat banklarida kreditlarni monitoring qilishning kuchaytirilgani, risklarni boshqarish tizimi va restrukturizatsiya mexanizmlarining takomillashtirilgani bilan bog'liq. 2024-yilda ulushning qayta oshishi esa global bozor beqarorligi, inflyatsion bosim, ayrim tarmoqlarda to'lov qobiliyatining pasayishi va qarz majburiyatlarining bajarilishi kechikishi kabi omillar ta'sirida shakllangan.

Davlat ulushi mavjud banklar faoliyatida ham muhim natijalar kuzatilmoqda. Ularning jami kreditlari 2022-yilda 318 788 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 331 070 mlrd so'mga, 2024-yilda esa 363 939 mlrd so'mga yetgan. Bu davrda davlat banklari kredit portfeli 14,2 foizga oshgan. Muammoli kreditlar hajmi esa mos ravishda 13 828 mlrd so'mdan 14 982 mlrd so'mgacha o'sgan. Eng e'tiborga loyiq jihat shundaki, davlat ulushi mavjud banklarda muammoli kreditlar ulushi 2022-yildagi 4,3 foizdan 2024-yilda 4,1 foizgacha pasaygan. Bu jarayon banklarda transformatsiya islohotlarining chuqurlashgani, korporativ boshqaruv tizimining mustahkamlanayotgani, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish jarayonining jadallashgani, shuningdek zamonaviy risk-menejment tizimlarining joriy etilgani bilan izohlanadi.

Xususiy tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushi nisbatan past bo'lsa-da, ularning absolyut hajmi tez sur'atlarda oshmoqda. Bu omil asosan kichik va o'rta biznes subyektlariga berilayotgan kreditlar hajmining kengayishi hamda ayrim mijozlarda moliyaviy intizomning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, tashqi bozorlarda talabning o'zgaruvchanligi, ayrim tarmoqlarda aylanma mablag'larning yetishmasligi va global iqtisodiy o'zgarishlar bu jarayonga ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, 2022–2024-yillar davomida kredit portfeli hajmining ortib borishi fonida muammoli kreditlar ulushi nisbatan barqaror saqlanib qolganini ko'rish mumkin. Bu tijorat banklarining kredit siyosatini diversifikatsiya qilish, risklarni baholash tizimini takomillashtirish, kredit monitoringini kengaytirish va restrukturizatsiya mexanizmlarini faol qo'llayotganidan dalolat beradi. NPL o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida qarzdorlarning to'lov qobiliyatining pasayishi, garov ta'minotining yetarli baholanmasligi, kredit risklarini aniqlashdagi xatoliklar va ayrim tarmoqlarda diversifikatsiya darajasining pastligi qayd etiladi.

Shunga qaramay, davlat banklarida muammoli kreditlar ulushining kamayib borishi, sektorning transformatsiya jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarning ijobiy natijasidir. Kelgusida muammoli kreditlar ulushini kamaytirish maqsadida tijorat banklarida kredit portfeli sifatini upravitel monitoring asosida baholash, "erta ogohlantirish" tizimini joriy etish, kredit risklarini baholashda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanish, garov baholash mexanizmlarini takomillashtirish hamda qarzdorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish muhim hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklarida sohalar bo'yicha muammoli kreditlar ulushi (%)

Tarmoqlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Uy-joy kommunal xizmati	9,2%	6,0%	4,5%
Qurilish	10,0%	7,6%	6,0%
Savdo va umumiy xizmat	8,6%	7,7%	6,8%
Jismoniy shaxslar	4,6%	2,6%	1,8%
Qishloq xo'jaligi	6,2%	5,7%	5,3%
Sanoat	3,7%	3,6%	3,5%
Boshqa sohalar	3,9%	2,6%	2,0%
Oddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	7,0%	4,5%	3,2%
Transport va kommunikatsiya	2,4%	1,8%	1,5%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki byulleteni ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tijorat banklarining kredit portfeli sifati hamda muammoli aktivlar ulushi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, moliyaviy tizimning ishonchliligi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. So'nggi uch yillik davrda barcha asosiy iqtisodiy sektorlar bo'yicha muammoli kreditlar ulushi sezilarli darajada kamayganligi kuzatilmoqda. Bu pasayish tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilayotgan kredit siyosati, zamonaviy risklarni boshqarish tizimi, kreditlarni doimiy monitoring qilish mexanizmlarining takomillashuvi hamda qarzdorlarning moliyaviy intizomining oshgani bilan izohlanadi. Ushbu ijobiy tendensiya banklar faoliyatiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanayotganini, iqtisodiy barqarorlikning oshganini va moliya tizimining samaradorligi ortayotganini ko'rsatadi.

Uy-joy kommunal xizmatlari sohasida muammoli kreditlar ulushi 2022-yildagi 9,2 foizdan 2023-yilda 6,0 foizga, 2024-yilda esa 4,5 foizga kamaygan. Bu sohada kreditlash siyosatining aniq va tizimli qo'llanilishi, mijozlarning to'lov qobiliyatining chuqur tahlil qilinishi hamda qarzdorlikni erta aniqlash va monitoring mexanizmlarining samarali ishlashi ushbu natijalarga erishishni ta'minlagan. Natijada uy-joy va kommunal xizmatlar sektoridagi kreditlar portfeli yanada barqaror va banklar uchun kam xavfli aktivlar sifatida shakllanmoqda.

Qurilish sohasida muammoli kreditlar ulushi 2022-yilda 10,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 7,6 foizga, 2024-yilda esa 6,0 foizga pasaygan. Qurilish sektori moliyalashtirilishi murakkab bo'lgan, yuqori kapital talab qiluvchi soha bo'lib, banklar tomonidan chuqur risk-assessment, loyihalarning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish, garov tizimini kuchaytirish va monitoring jarayonlarini kengaytirish ushbu ko'rsatkichni pasaytirgan. Tendensiya qurilish bozorida sarmoyaviy ishonch mustahkamlanayotganini, infrastruktura loyihalarining moliyaviy barqarorligi kuchayayotganini va banklarning xavfsiz kreditlash siyosatini amalga oshirayotganini ko'rsatadi.

Savdo va umumiy xizmatlar sohasida muammoli kreditlarning kamayishi ham ijobiy temir yo'l sifatida e'tiborga loyiqdir. 2022-yilda 8,6 foizni tashkil etgan NPL ulushi 2023-yilda 7,7 foizga, 2024-yilda esa 6,8 foizga qisqargan. Bu holat banklar tomonidan ushbu sohada kreditlash jarayonlarini optimallashtirish, mijozlarni chuqur tahlil qilish, qarzdorlikni monitoring qilish va diversifikatsiyalangan kredit siyosatini amalga oshirish natijasida yuzaga kelgan. Jismoniy shaxslar segmentida NPL ulushining 2022-yildagi 4,6 foizdan 2024-yilda 1,8 foizga kamayganligi banklar tomonidan samarali individual kreditlash siyosati yuritilayotganini, aholining moliyaviy mas'uliyati ortayotganini va kredit intizomi yaxshilanayotganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida muammoli kreditlar ulushi 2022-yildagi 6,2 foizdan 2024-yilda 5,3 foizgacha pasaygan. Sanoat tarmoqlarida esa ushbu ko'rsatkich 3,7 foizdan 3,5 foizgacha kamaygan. Oddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish yo'nalishidagi pasayish 7,0 foizdan 3,2 foizgacha, boshqa sohalarida esa 3,9 foizdan 2,0 foizgacha qisqarish bilan yakunlangan. Ushbu natijalar banklarda kredit portfelini diversifikatsiya qilish, sektorlar bo'yicha risklarni tarqatish, garov baholash tizimini takomillashtirish hamda kreditlarni qaytarish tartibini monitoring qilish mexanizmlarini rivojlantirish samaradorligini ko'rsatadi.

Transport va kommunikatsiya sohasida muammoli kreditlar ulushi eng past bo'lib, 2022-yildagi 2,4 foizdan 2024-yilda 1,5 foizgacha kamaygan. Mazkur sektor odatda barqaror daromad keltiradigan loyihalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, banklarning ushbu yo'nalishda xavfsiz kredit siyosatini yuritishi, monitoring jarayonlarining faol amalga oshirilishi ham natijaga ta'sir qilgan.

Umuman olganda, 2022–2024-yillar davomida sohalar bo'yicha muammoli kreditlar ulushining pasayishi banklarning risklarni boshqarish strategiyasini takomillashtirish, kredit monitoringi, "erta ogohlantirish" tizimini qo'llash, garov baholash mexanizmlarini modernizatsiya qilish va qarzdorlar moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar tijorat banklari



faoliyatining barqarorligini mustahkamlaydi, moliyaviy tizimni yanada ishonchli qiladi va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan bog'liq jarayonlar faqatgina kredit oluvchilarning to'lov intizomi yoki moliyaviy madaniyati bilan cheklanmaydi. Bu jarayon iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgaruvchanligi, bozor sharoitlarining murakkabligi, garov aktivlarining real baholanishi, banklar ichki boshqaruv tizimi samaradorligi va kredit risklarini baholash mexanizmlariga ham bevosita bog'liqdir. Kredit portfeli sifatini ta'minlash uchun banklar an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan risk baholash tizimlari, keng qamrovli monitoring va "erta ogohlantirish" mexanizmlaridan foydalanishi zarur. Ayniqsa, big data analytics, sun'iy intellektga asoslangan scoring-modellaridan foydalanish, biznes jarayonlardagi o'zgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish kredit portfeli sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tahlillar shuni tasdiqladiki, banklarning ichki nazorat tizimlari, audit jarayonlari va kredit berish standartlarining har tomonlama takomillashtirilishi muammoli kreditlar ulushini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, kredit risklarini baholash mezonlarini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish va kredit qarorlarining shaffofligini ta'minlash kredit xavfini sezilarli darajada pasaytiradi. Shuningdek, garov va kafillik tizimini takomillashtirish, garov qiymatini real bozor bahosiga mos ravishda muntazam qayta ko'rib borish kredit xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar kredit portfelini segmentlashtirish, diversifikatsiya qilish va yuqori xavfli yo'nalishlarda qo'shimcha monitoring tizimlarini joriy etish tijorat banklari uchun eng muhim strategik yondashuvlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Korporativ kreditlar, kichik va o'rta biznes kreditlari hamda chakana kreditlar bo'yicha alohida risk boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish kredit portfelining barqarorligini ta'minlaydi. Mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, to'lov intizomini mustahkamlash va qarz madaniyatini shakllantirish muammoli kreditlarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Banklar tomonidan konsultativ xizmatlar, o'quv dasturlari, mas'uliyatli kreditlash madaniyatini targ'ib etish, shuningdek, rag'batlantiruvchi mexanizmlarni qo'llash bank-mijoz munosabatlarini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, muammoli kreditlarni kamaytirish, kredit portfelini optimal boshqarish va tijorat banklari moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bank sektorini yangi bosqichga olib chiqadi. Ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ichki boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy risk boshqaruv metodologiyalaridan foydalanish va mijozlar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish tijorat banklarining moliyaviy holatini mustahkamlaydi. Natijada, tijorat banklari nafaqat muammoli kreditlar ulushini kamaytiradi, balki iqtisodiyotning real sektorini yanada faol qo'llab-quvvatlaydi, investitsion muhitni yaxshilaydi va mamlakat moliyaviy tizimining umumiy barqarorligiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chibrikov G.G. *Bankovskiy biznes: ot triumfa k somneniyam* // Bankovskoye delo. – Moskva, 2012-yil. – № 4. – B. 6–9.
2. Osipenko T.V. *Nekotorye voprosy povysheniya kachestva upravleniya riskami bankovskoy deyatel'nosti* // Dengi i kredit. – Moskva, 2003-yil. – № 5. – B. 42–45.
3. Lavrushin O.I. *Rol kredita v ekonomicheskoy razvitii* // Bankovskoye delo. – Moskva, 2011-yil. – № 2. – B. 36–37.
4. Litvinov Ye.O. *Tendentsii razvitiya protsentnykh stavok po roznichnym kreditam v Rossii* // Dengi i kredit. – Moskva, 2014-yil. – № 2. – B. 40–43.
5. Valenseva N.I. *Tsenoobrazovaniye na rynke bankovskikh uslug* // Bankovskoye delo. – Moskva, 2013-yil. – № 11. – B. 37–44.
6. Golovanov A.A. *O bankovskom kreditovanii nefinansovykh organizatsiy* // Dengi i kredit. – Moskva, 2014-yil. – № 4. – B. 42–46.
7. Yudina I.N. *Bankovskaya sistema v razvivayushchikhsya ekonomikakh: opyt stanovleniya i razvitiya*. Monografiya. – Moskva: INFRA-M, 2013-yil. – 351 b.
8. Soldatova F.O. *Faktoring i sek'yuritizatsiya finansovykh aktivov*. – Moskva: Izdatelskiy dom Vysshey shkoly ekonomiki, 2013-yil. – 604 b.
9. Leksis V. *Kredit i banki*. Tarjima nemis tilidan. – Moskva: Perspektiva, 1994-yil. – 295 b.
10. Menkyu G. *Printsipy makroekonomiki*. Tarjima ingliz tilidan. – Sankt-Peterburg, 2009-yil. – B. 37–38.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100